

**МЕХНАТ UNUMDORLIGI - IQTISODIYOT TARMOQLARIDA ISHLAB  
CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MUHIM  
KO'RSATKICHI SIFATIDA**

**Kunakova Fotima Boxodir qizi  
Fattoyev Elbek Alisherovich**

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchilari  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11300361>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xotin-qizlarining mehnat bozorida o'z ahamiyatini namoyon etish, ularning mehnat unumdorligiga ta'sirini va ularga yaratiladigan imkoniyatlarni ta'kidlashga harakat qilindi. Maqola o'zida xotin-qizlarining mehnat bozoridagi roli, ularning mehnat samaradorligiga o'rinni olishi, ularning o'z salohiyatini namoyon etishda duch keladigan muammolar va bu muammolarni bartaraf etish uchun ko'rildigan chora-tadbirlar haqida muhokama qiladi. Maqola turli sohalarda turli xildagi yondashuvlar mavjudligini ham ko'rsatadi. Uning mazmuni o'z mehnatlari va xizmatlari bilan iqtisodiyotning rivojlanishi, ijtimoiy taraqqiyotga va innovatsiyalarga hissa qo'shishiga taalluqli ma'lumotlar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** mehnat unumdorligi, xotin-qizlar, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, faoliyat, ko'plab sohalar, tadbirkorlik, samaradorlik, mazkur ko'rsatkich, qo'nun, foydalanish, muhim, holat, to'siqlar, qiyinchiliklar, maosh, rahbarlik, jinsiy tazyiq, chora-tadbirlar.

**ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА-КАК ВАЖНЫЙ ПОКАЗАТЕЛЬ ОЦЕНКИ  
ЭФФЕКТИВНОСТИ ФАКТОРОВ ПРОИЗВОДСТВА В ОТРАСЛЯХ  
ЭКОНОМИКИ**

**Кунакова Фатима Бухадыровна  
Фаттоев Эльбек Алишерович**

Преподаватели Ташкентского университета прикладных наук

**Аннотация:** В данной статье предпринята попытка осветить значимость женщин на рынке труда, их влияние на производительность труда и открываемые для них возможности. В статье рассматривается роль женщин на рынке труда, их место в эффективности труда, проблемы, с которыми они сталкиваются при реализации своего потенциала, а также меры, принимаемые для устранения этих проблем. В статье также показано, что в разных областях существуют разные подходы. Его содержание также включает информацию, связанную с вкладом их работы и услуг в экономическое развитие, социальное развитие и инновации.

**Ключевые слова:** производительность труда, женщины, экономическое развитие, социальное развитие, деятельность, многие отрасли, предпринимательство, эффективность, этот показатель, приземление, использование, важность, статус, препятствия, трудности, заработка плата, лидерство, сексуальные домогательства, меры.

**LABOR PRODUCTIVITY AS AN IMPORTANT INDICATOR FOR EVALUATING  
THE EFFECTIVENESS OF PRODUCTION FACTORS IN ECONOMIC SECTORS**

**Annotation:** In this article, an attempt was made to highlight the importance of women in the labor market, their impact on labor productivity, and the opportunities created for them. The

article discusses the role of women in the labor market, their place in labor efficiency, the problems they face in manifesting their potential, and the measures taken to eliminate these problems. The article also shows that there are different approaches in different fields. Its content also includes information related to the contribution to economic development, social development and innovation with their work and services.

**Keywords:** labor productivity, women, economic development, social development, activity, many industries, entrepreneurship, efficiency, this indicator, landing, use, importance, status, obstacles, difficulties, wages, leadership, sexual harassment, measures.

## Kirish

Hozirgi zamонавиът бозор иқтисодийоти шароитидан мөннат унумдорлигининг ошиб бориш ғонунини билish ва undan to'g'ri foydalana olish xayotiy zaruratdir.

Xotin-qizlar har doim jamiyatning muhim a'zolari bo'lib kelgan. Ularning hayotdagi va mehnatdagi roli so'nggi yillarda sezilarli darajada o'zgardi va kengayib bormoqda. Bugungi kunda xotin-qizlar ko'plab sohalarda faoliyat yuritib, iqtisodiy rivojlanishga, ijtimoiy taraqqiyotga va madaniy yuksalishga katta hissa qo'shamoqdalar.

Xotin-qizlar ishchi kuchining katta qismini tashkil etadi. Ular ta'lim, tibbiyat, xizmat ko'rsatish va boshqa ko'plab sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorlik sohasida ham o'z o'rnnini topib, o'z bizneslarini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinalarini yaratib, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shamoqda.

Afsuski, xotin-qizlar hali ham mөnнат бозоридан bir qator to'siqlar va qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ular orasida teng maosh masalalari, rahbarlik lavozimlarida kam o'rin egallanishi va jinsiy tazyiqlar kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish va xotin-qizlarning mөnнат samaradorligini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlar ko'riliши zarur.

Ushbu maqolada biz xotin-qizlarning mөnнат бозорidagi roli, ularning samaradorlikka ta'siri va ularga yaratiladigan imkoniyatlar haqida so'z yuritamiz. Maqola davomida xotin-qizlarning mөnнат бозорidagi holati, ularning o'z salohiyatini namoyon etishda duch keladigan to'siqlar va bu to'siqlarni bartaraf etish uchun ko'rildigan choralar muhokama qilinadi.

Ushbu ko'rsatkichni turli sohalarda turlicha aniqlanishi bo'yicha bir qancha yondashuvlar mavjud. Chunki har bir soha va tarmoqning o'ziga xos hususiyatlari ushbu ko'rsatkichni aniqlashga bo'lган yondashuvlarni ham turlicha bo'lishini taqozo qiladi. Ammo barcha holatlarda ham bitta metodologik yondashuv bor. Uning mazmuni yaratilgan mahsulot (ish, xizmat) hajmini uni yaratishda ishtirok etgan xodimlar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Biroq natija ko'rsatkichi uchun qaysi holatda qanday ko'rsatkichni olish va xodimlar sonining ham qaysi turini olish masalasi hamisha muammo bo'lib kelgan.

Xotin-qizlarning mөnнат samaradorligidagi o'rni

Xotin-qizlar jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ularning mөnнат samaradorligidagi o'rni va ahamiyati yildan-yilga oшиб bormoqda. Ushbu maqolada xotin-qizlarning mөnнат бозорidagi roli, ularning samaradorlikka ta'siri va ularga yaratiladigan imkoniyatlar haqida so'z yuritamiz.

Xotin-qizlarning mөnнат бозорidagi roli

Xotin-qizlar hozirgi kunda deyarli barcha sohalarda faoliyat yuritmoqdalar. Ular o'z mehnatlari bilan iqtisodiyotning rivojlanishiga, ijtimoiy taraqqiyotga va innovatsiyalarga hissa qo'shamoqdalar. Xotin-qizlarning mөnнат бозорida ishtirok etishi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir.

Ayniqsa, ta'lim, tibbiyot, xizmat ko'rsatish va savdo sohalarida xotin-qizlar muhim rol o'ynaydilar. Ushbu sohalarda ularning mehnati jamiyat uchun zarur xizmatlar ko'rsatishga yordam beradi. Buning natijasida, xotin-qizlarning iqtisodiyotdagi hissasi yanada oshadi.

Mehnat unumdarligi ko'rsatkichlarga aniqlik kiritish uchun mazkur ko'rsatkichning ta'rifiga nazar tashlashni maksadga muvofiqdir. Ammo iqtisodiy adabiyotlarda uning ta'rifiga deyarli to'xtalmagan. Faqat mehnat unumdarligi ko'rsatkichining qanday aniqlanishi va uning mazmunigagina ahamiyat berilgan. Bu borada xam bir qancha fikrlar aytilgan. Masalan, E.A. Markaryan, G.P.Gerasimenko va S.E.Markaryanlarning mehnat unumdarligini aniqlash yo'llari bo'yicha quyidagicha qarashlari mavjud: "Bunda ikkita ko'rsatkich bilan ifodalash tavsiya qilingan: Bitta xodimga va bitta ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ishlab chiqarilgan mahsulot"1.

### **Adabiyotlar tahlili:**

Shodmonov Sh. va G'afurov U. tomonidan "Iqtisodiyot nazariyasi" nomi bilan chiqarilgan darslik, 2010 yilda IQTISOD-MOLIYA nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Bu adabiyot iqtisodiyot sohasidagi nazariy tushunchalarni o'rganishga mo'ljallangan.

Adabiyotning mavzusi "Iqtisodiyot nazariyasi" nomi ostida belgilangan. Bu nazariyalar, iqtisodiyotning umumiyligi prinsiplari, moliyaviy tizimlar, daromad va xarajatlar, bozor strukturalari, ishlab chiqarish jarayonlari va boshqa asosiy iqtisodiy mavzularni o'z ichiga oladi.

Abdukarimov I.T., Abdukarimova L.G., va Smagina V.V. tomonidan "Analiz finansovo hozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya" nomi bilan chiqarilgan "Uchebnoye posobiye" nomli darslik, 2008 yilda Tambov shahridagi Izdatelskiy dom TGU tomonidan nashr etilgan. Bu adabiyotni ichkiy auditoriyaga, ya'ni oliy ta'lim muassasalarining talabalariga iqtisodiyot sohasida dars olib borish uchun mo'ljallangan. Adabiyotning mavzusi "Analiz finansovo hozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya" nomi ostida belgilangan. Bu mavzu, korxonalar va tadbirkorlik faoliyati doirasida iqtisodiyot sohasidagi analizning asosiy tushunchalarini o'z ichiga oladi.

"Ekonomicheskaya teoriya" nomi bilan chiqarilgan darslik, 2004 yilda Moskvadagi Gumanit izdatlar markazi VLADOS tomonidan 10-chi marta nashr etilgan. Bu darslik oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot fakultetlaridagi talabalar uchun mo'ljallangan. "Darslik" sifati belgilangan. Bu adabiyotning o'quv qollanmasi sifatida mo'ljallanganligini ko'rsatadi.

**Tahlil:** Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda hozirgi kungacha nashr qilingan iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masalaga, ya'ni makrodarajada mehnat unumdarligining ta'rifiga juda kam e'tibor qaratilgan. Ammo ushbu iqtisodiy kategoriya o'z mohiyatini yo'qotgan emas. Shuning uchun ham mehnat unumdarligining to'laroq ta'rifini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai-nazardan biz ushbu kategoriyaning ta'rifini milliy darajaga mos holda ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Milliy iqtisodiyotda mehnat unumdarligi deganda, iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida band bo'lgan xodimlar tomonidan muayyan vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmi yoki yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt birligi bilan o'lchanishi tushuniladi.

1 Маркарьян Э.А. и.д.р. Экономический анализ хозяйственной деятельности: учеб. пособ./-2-е изд. перераб. и доп. - М.: КНОРУС, 2010.- С.45.

Agar mehnat unumdorligini MU, mahsulotni M bilan, sarflangan ish vaqtini V bilan belgilasak, mehnat unumdorligi quyidagicha aniqlanadi2:

$$MY = M/B \quad (1)$$

Mehnat unumdorligi sarflangan jonli mehnatning har bir birligi evaziga, ya'ni kishi kuni, kishi soati hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi.

Ushbu ta'rifni nazariy jihatdan quyidagicha asoslash mumkin.

Birinchidan, mehnat unumdoligi hamisha ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lgan xodimlarning o'rtacha mehnat natijasini ifodalaydi. Shu tufayli unda yaratilgan mahsulotning ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga to'g'ri kelishi o'z aksini topgan.

Ikkinchidan, iqtisodiyotda band bo'lgan xodimlarning mehnat natijasi ma'lum bir vaqt birligida bajarilgan bo'lishi kerak. Shu tufayli ta'rifda xodimlarning ma'lum bir vaqt birligi olingan.

Mahsulot hajmini muttasil oshirish va shu asosda xalqning turmush farovonligini oshirishdagi eng muhim omil bu – mehnat unumdorligini doimiy ravishda oshirib borishdir. Hukumatimiz qarorlari asosida ishlab chiqilgan ko'plab dasturlarda ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda mehnat unumdorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi chuqur ilmiy tarzda tahlil qilib berilgan.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari juda ko'p va xilma-xildir. Bunda asosiy e'tiborni ishlab chiqarish jarayonlarini modernizasiya qilish evaziga uni avtomatlashtirish va mexanizasiyalashtirish, innovasiyalar hisobiga yangi mashina va texnologiyalarni joriy qilish, ishlayotgan dastgohlarni zamonaviylashtirish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish, unda mehnatni ilmiy tarzda tashkil etishni yaxshilash, ish vaqtidagi yo'qotishlarni bartaraf qilish, xorij va o'zimizdagi sinalgan ilg'or ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanish, mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tizimini to'g'ri tashkil qilish kabilarga qaratishni taqozo qiladi.

**Ko'rsatgichlar:** Iqtisodiy adabiyotlarda, mikrodarajada mehnat unumdorligini hisoblashda asosan quyidagi uchta ko'rsatkichni qo'llash mumkinligi qayd etilgan:

1. Natural ko'rsatkichlar.
2. Shartli-natural ko'rsatkichlar.
3. Pul (qiymat) ko'rsatkichlar.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarning ma'lum darajada ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Masalan, natural ko'rsatkichlar bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda qo'llanilishi mumkin. Unda mehnat unumdorligi tonna, metr, dona va h.k. ko'rsatkichlar orziali hisoblanadi. Bunga neft yoki ko'mir qazib chiqarishni misol qilib olish mumkin. Ushbu mahsulotlarning miqdori natural holda massa yoki hajm birliklarida ifodalanadi. Masalan, paxta yoki don yetishtirishda ham natural ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Bunda paxta yoki don yetishtirishni tonna yoki sentnerlarda ifodalash mumkin. Paxta yetishtirishda nafaqat mehnat unumdorligi, balki hosildorlikni ham sentnerda ko'rsatish mumkin. Yengil yoki yuk avtomobillarini ishlab chiqarishni esa bir rusumda bo'lsa donalarda o'lchash ham mumkin. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda mahsulotni ishlab chiqarish va mos ravishda mehnat unumdorligini ham natural o'lchovlarini takomillashtirish yuzasidan ancha ishlar qilindi. Masalan, xom ashyodan yaxshiroq foydalanish maqsadida qog'oz ishlab chiqarish tarmog'ida qog'oz ishlab chiqarish oldingidek tonnalarda emas, balki kvadrat metrlarda o'lchanadi. Natural ko'rsatkichlar hozirgi

erkin iqtisodiyotga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik mexanizmining eng zarur elementlaridan biriga aylanib bormoqda. Chunki xodimlarga ham ishbay ish haqi to'lanishida asosiy o'lchov vositalaridan biri sifatida natural ko'rsatkichlardan foydanish keng qo'llanilmoqda. Bunday yondashuv har bir kishining mehnat natijasini real ifodalash imkonini beradi va xodimlarni to'g'ri rag'batlantirishga erishiladi. Ammo natural ko'rsatkichlarning ayrim kamchiliklari mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- agar korxona turli xil mahsulotlar ishlab chiqarsa, ularni umumiylar tarzda baholash uchun natural ko'rsatkichda aniqlash qiyin;
- bir xil mahsulot ishlab chiqarilgan taqdirda ham ularning navi va o'lchami har xil bo'lganda ham ushbu ko'rsatkichdan foydalanib bo'lmaydi.

Shu tufayli ushbu ko'rsatkichning takomillashgan o'lchovlaridan biri bo'lgan shartli - natural ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Chunki ushbu ko'rsatkich orqali turli xil o'lchamdagagi mahsulotlarni yagona o'lchovga keltirish mumkin. Bunga misol qilib, ot kuchi birligiga keltirib hisoblangan avtomobillar, traktorlarning matorini aytish mumkin. Bularidan tashqari, shartli bankada ishlab chiqarilgan konserva mahsulotlarini oladigan bo'lsak, uni ifodalash uchun quyidagilarni inobatga olish lozim. Masalan, kichik korxonada bir kunda 500 ta 3 litrlik, 250 ta 2 litrlik va 600 ta 1 litrlik bankada konserva ishlab chiqildi. Agar ularning hammasini qo'shadigan bo'lsak, 1350 ta banka (500+250+600) ishlab chiqarilganligi to'g'risida xulosa qilish mumkin. Ammo bu noto'g'ri bo'ladi, chunki ularning har biri turli o'lchamga ega. Shu tufayli 2 litrlik bankiga moslashtirib, shartli banka misolida oladigan bo'lsak natija quyidagicha chiqadi:

$$\{(500*3):2\} + \{(250*2):2\} + \{(600*1):2\} = 750 + 250 + 300 = 1300 \text{ dona.}$$

Ishlab chiqarilgan bankalar soni shartli natural, ya'ni taqqoslanadigan holda 1350 emas, balki 1300 ta ishlab chiqarilganligini ko'ramiz. Xuddi shunday hisob-kitoblarni boshqa bir qancha o'lchamlarda ifodalananadigan mahsulotlar o'lchovini ham keltirish mumkin. Ammo hamma mahsulotlarni ham natural o'lchamda ifodalaniishi qiyin. Shu tufayli universal o'lchov birligi sifatida qiymat ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bunga bir qancha sabablar bor:

Birinchidan, iqtisodiy mexanizmlar va ularning harakati va umumlashgan ko'rsatkichlari qiymat o'lchovi orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, turli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ham pulda ifodalanadi va mos ravishda to'lovlar ham shu o'lchamda amalga oshiriladi.

Uchinchidan, turli mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarda natural va shartli - natural ko'rsatkichlarni qo'llash mumkin bo'lmagan joyda mehnat natijasini baholash uchun qiymat o'lchovidan foydalaniladi. Shu nuqtai-nazardan qiymat ko'rsatkichlari turli xil mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda oldin ham qo'llanilgan, hozir ham qo'llanilmoqda va keyin ham xuddi shunday bo'ladi. Chunki ushbu ko'rsatkich universal ko'rsatkich sifatida iqtisodiyotning makro va mikro darajalarida qo'llanilib kelinadi.

Ta'kidlash joizki, qiymat ko'rsatkichlari korxona va birlashmalar ishini baholashda, uning natijalari bo'yicha moddiy rag'batlantirishda, ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda, mehnat unumdarligini qiyosiy jihatdan tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Korxonalarning ishlab chiqargan mahsuloti, bajarilgan ishi va ko'rsatilgan xizmatlari hajmi, mahsulot tannarxi va foya ko'rsatkichlari ham qiymat o'lchovida aniqlanadi.

Mehnat unumdarligi, asosiy vositalar samaradorligi va mahsulotga ketgan materiallar sarflari ham qiymat o'lchovida ifodalanadi. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot ham, ular

o'rtasidagi nisbat ham, realizasiya qilingan tovarlar va sof mahsulotlar ham qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi. Qiymat ko'rsatkichini qo'llashda ikkita shartni hisobga olish lozim.

Birinchisi, mahsulotga qo'yilgan narx tahlil qilinayotgan davrda o'zgarmagan bo'lishi va ikkinchidan, mahsulotlarning assortimentidagi tarkibiy o'zgarishlarda ham keskin barqaror saqlanib qolgan bo'lishi lozim.

Agar narxda o'zgarish bo'lsa, uni taqqoslash uchun narx indeksini inobatga olish lozim va taqqoslanadigan qiymatni aniqlashni taqozo qiladi. Bu quyidagi formula orqali ifodalanadi

$$Qtb = Qh : Ip \quad (2)$$

Bunda:  $Qtb$  – ishlab chiqarilgan mahsulotning taqqoslanadigan narxda ifodalangan qiymati;

$Qh$  – ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy qiymati;

$Ip$  – tahlil davrida narx o'zgarishiga mos bo'lgan narx indeksi.

Agar assortimentida tarkibiy o'zgarish bo'lsa, uning boshlang'ich tarkibidagi qiymati qayta hisoblab olinadi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi3:

$$Qmas = Qr + (\Delta Qh : Kasr)$$

Bunda:  $Qmas$  – ishlab chiqarilgan mahsulot assortimentidagi o'zgarishlarni inobatga oladigan taqqoslanadigan qiymati;

$Qr$  – ishlab chiqariladigan mahsulotning rejadagi qiymati;

$\Delta Qh$  – rejadan ortiqcha (yoki kam) ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

Kasr – mahsulotning ichki assortimentidagi o'zgarishini ifodalovchi koeffisiyent.

Ushbu ko'rsatkichni, ya'ni mahsulotning ichki assortimentidagi o'zgarishini ifodalovchi koeffisiyentni aniqlash uchun qaysi assortimentda narx oshgan bo'lsa, shu assortimentning rejadagi narxiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Mazkur koeffisiyent ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan qayta hisoblanib olinadi. Korxonalarning mehnat unumdorligini aniqlashda natija ko'rsatkichi sifatida yuqorida keltirilgan taqqoslanadigan ko'rsatkichlar olinadi va ulardan barcha hisob-kitoblarda foydalanish mumkin.

**Xotin-qizlarning samaradorlikka ta'siri va tahlili:** Xotin-qizlar o'z mehnatlari bilan nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki samaradorlikka ham ta'sir ko'rsatadilar. Xotin-qizlar ish joylarida tashkilotchilik, muloqot qilish va muammolarni hal etish kabi ko'nikmalarni namoyon etadilar. Bu esa, umumiy mehnat samaradorligining oshishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xilma-xillikka ega jamoalar, jumladan, ayollar ishtirok etadigan jamoalar, ko'proq innovatsiyalar yaratadilar va muammolarni samarali hal etadilar. Bu esa kompaniyalar va tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Xotin-qizlarga yaratiladigan imkoniyatlar

Xotin-qizlarning mehnat samaradorligidagi o'rnini yanada mustahkamlash uchun ularga teng imkoniyatlar yaratish muhimdir. Bu o'z ichiga teng maosh, o'qitish va malaka oshirish, hamda rahbarlik lavozimlariga tayinlash imkoniyatlarini oladi.

---

3 Z.B. Irmatova Korxonalarda mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlashni takomillashtirish yo'llari "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2015 yil

Bundan tashqari, xotin-qizlarga mehnat va shaxsiy hayotni muvozanatlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratish ham zarurdir. Bu, masalan, fleksibel ish vaqt, masofadan ishlash yoki bolalar bog'chalari kabi xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimida jonli mehnat bilan birga buyumlashgan mehnatning ham qiymati bor. Bu qiymat yaratilgan mahsulotning tarkibida mayjud. Shu tufayli jonli mehnatning hissasi kam bo'lib, buyumlashgan mehnatning hissasi katta bo'lsa, ozgina mehnat bilan ham yuqori mehnat unumdorligiga erishish mumkinligi ayon bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy mehnat unumdorligi tushunchasi qo'llaniladi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan yalpi ichki mahsulot miqdorini unda band bo'lgan har bir ishlovchi xodimga nisbati bilan o'lchanadi. Ushbu metodologik asosni korxonalarda mehnat unumdorligining darajasini aniqlashda ham foydalanish mumkin. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmini ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarining soniga nisbati bilan aniqlanadi. Shu tariqa ularni aniqlashda yagona metodologik asos shakllanadi.

Milliy iqtisodiyotda mehnat unumdorligini aniqlashda tarmoq va sohalarda band bo'lganlar soni ikkita ikkita guruhga bo'lib o'r ganiladi: iqtisodiyotda band bo'lgan umumiy xodimlar soni va bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar soni. Mehnat unumdorligining haqiqiy darajasini bevosita ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar soni ifoda etadi. Ammo boshqaruvda ishtirok etadigan xodimlar ham ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarga tegishli sharoitni yaratib beradi.

Bundan tashqari, mamlakatda yaratilgan barcha tovar va xizmatlarga sarflangan mehnatni aniqlash uchun iqtisodiyotda band bo'lgan xodimlarning ishlagan vaqt va ularga to'langan ish haqi miqdorini ham olish mumkin. Mehnat unumdorligini ushbu ko'rsatkichlar bilan hisoblanganda uning darjasasi ancha aniq ifodalananadi. Chunki har bir mahsulotga faqat sarf qilingan mehnat inobatga olinadi. Ammo hozirgi amaldagi hisobotlarda ushbu ko'rsatkichlar rasmiy tarzda o'z ifodasini topmagan. Shu tufayli mehnat unumdorligini aniqlashda maxrajida bir qancha ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bularga:

- iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalaridagi umumiy bandlar soni;
- bevosita ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotgan xodimlar soni;
- barcha xodimlarning sarf qilgan ish vaqt;
- ishchi va ximzatchilarga to'langan ish haqining umumiy hajmi.

Agar mehnat unumdorligini aniqlashda ushbu ko'rsatkichlardan foydalanilsa, tabiiyki uni ifodalash uchun bitta ko'rsatkich emas, balki ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotda mehnat unumdorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim:

1. Milliy iqtisodiyotda band bo'lgan bitta xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi;
2. Iqtisodiyotda bevosita ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan xodimlarga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi;
3. Ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xodimlarning umumiy soni;
4. Ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan umumiy ish vaqtining miqdori;
5. Ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xodimlarga to'langan ish haqining umumiy miqdori.

Yuqorida keltirilgan ikkita ko'rsatkichning miqdori (1 va 2 ko'rsatkichlar) qancha oshib borsa, iqtisodiyotda mehnat unumdorligi shuncha yuqori, deb baholanadi. 3, 4 va 5 - ko'rsatkichlarning miqdori qancha kamayib borsa, mos ravishda mehnat unumdorligini shuncha yuqori deb baholanadi. Milliy iqtisodiyotda mehnat unumdorligining darajasiga to'g'ri baho berish uchun ushbu ko'rsatkichlar tizimidan to'liq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat unumdorligi – rivojlanib boruvchi ko'rsatkichdir. U ko'pgina sabablar va omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi. Ulardan bir xillari mehnat unumdorligi oshishiga yordam bersa, boshqalari uni pasaytirishga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, mehnat unumdorligi darajasi va o'sishiga mehnat jarayoni kechadigan sharoit ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shart-sharoitlar qulay bo'lsa, u yoki bu omilning ta'sir etishini kuchaytiradi yoki noqulay bo'lsa, bu ta'sirni zaiflashtiradi. Masalan, tabiiy-iqlim sharoitlari qishloq xo'jaligidagi mehnat natijalariga va uning unumdorligiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish vositalarining mulkchilik shakllari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy shart-sharoitlar, shuningdek, ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan shart-sharoitlar boshqa teng sharoitda ham mehnat unumdorligiga jiddiy ravishda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mehnat unumdorligi darajasi va uning dinamikasiga ko'pgina omillar ta'sir qiladi. Omillar deb mehnat unumdorligining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan harakatlantiruvchi kuchlar yoki sabablarga aytildi. Ulardan ayrimlari mehnat unumdorligining ortishiga yordam bersa, boshqalari unumdorlikning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Omillarning birinchi guruhi mehnat vositalari samarasining ortishi, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish va mehnatkashlar ijtimoiy guruhlari sharoitining yaxshilanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha tadbirlar kiradi; ikkinchi guruhi tabiiy sharoitlarning noqulay ta'sir ko'rsatishi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi kamchiliklar, ijtimoiy sharoitdagi salbiy elementlarning ta'sir ko'rsatishini o'z ichiga oladi kiradi.

Ayrim korxona yoki tashkilot darajasidagi omillarni qarab chiqqanda, ularning hammasini ichki va tashqi omillarga bo'lish mumkin.

Ichki omillarga korxonaning texnika bilan qurollanish darajasi, qo'llanilayotgan texnologiyaning samaradorligi, mehnat va ishlab chiqarishning energiya bilan ta'minlanishi darajasi, tatbiq etilayotgan rag'batlantirish tizimlarining ta'sirchanligi, kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, kadrlar tarkibining yaxshilanishi kabi korxona rahbarlariga bog'liq bo'lgan barcha narsalar kiradi.

Tashqi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: davlat buyurtmalari va bozordagi talab hamda takliflarning o'zgarishi munosabati bilan mahsulot xillari va ularning sermehnatlik darajasi o'zgarishi; jamiyat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlari; mehnatning kooperasiyalashuv darajasi, moddiy texnika ta'minoti, tabiiy shart-sharoitlar va hokazolar.

Barcha omillarni o'z ichki mazmun va mohiyatiga ko'ra, uchta guruhga bo'lish mumkin: moddiy-texnika; tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy. Mehnat unumdorligini oshirishning moddiy asosi fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish, ularning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishdir. Shuning uchun ham moddiy-texnika omillari guruhini, odatda, yetakchi va qolgan barcha omillarni belgilovchi guruh deb qaraladi.

Mehnat unumdorligini oshirishning moddiy-texnika omillariga fan-texnika taraqqiyotini uzluksiz rivojlantirish asosida mehnatning texnika va energiya bilan ta'minlanishini oshirish kiradi. Ishlab chiqarishda fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'naliishlari quyidagilardir: ishlab chiqarishning avtomatlashtirishga o'tish munosabati bilan uni mexanizasiyalash; mehnatning

energiya bilan ta'minlanish darajasini oshirish asosida mashina va asbob-uskunalar quvvatining ortishi; ishlab chiqarishni elektrlashtirish; sanoat va qishloq xo'jaligining bir qancha tarmoqlarida ishlab chiqarishni kimyolashtirish; butunlay yangi texnologiyalarning yaratilishi (ular ishlab chiqarish intensivligini oshirishni ta'minlaydi va jonli mehnat sarfini keskin qisqartiradi); ishlab chiqarishga material sarflanishining pasayishi va moddiy resurslarning tejalishi; mashinalar va asbob-uskunalar ixtisoslashuvining chuqurlashuvi va shu kabilar. Energiyaning yangi qudratli manbalari – atom, ichki yadro, geoterial, kosmik va hokazo turlarining o'zlashtirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Moddiy - texnika omillari ta'siri natijasida mehnat unumdorligi ortadi va mahsulotning sermehnatlik darajasi ( $t$ ) pasayadi. Sermehnatlilik darajasi ko'rsatkichi bo'yicha mehnat unumdorligining o'sishi quyidagi formulalar<sup>4</sup> bilan aniqlanadi:

$$M_y = \frac{M_{CM} \times 100}{100 - M_{CM}} \text{ yoki } M_y = \frac{M_{CM} \times 100}{C_{CM} - M_{CM}} \quad (3)$$

Bu yerda:  $M_y$  - mehnat unumdorligining oshishi, %;

$M_{CM}$  - mahsulot birligi sermehnatlik darajasining pasayishi, %;

$C_{CM}$  - tadbirni joriy etishdan oldin mahsulot birligi uchun zarur bo'ladigan boshlang'ich sermehnatlilik darajasi.

Mehnat unumdorligining o'sishiga doir tashkiliy omillarda korxonalar, tarmoqlar va umuman, xalq xo'jaligi darajasida ishlab chiqarishni tashkil etish kiradi. Xususan, korxonalarni mamlakatimiz hududlari bo'yicha joylashtirish, ham mamlakat ichida, ham chet mamlakatlar bilan transport aloqalarini yo'lga qo'yish; korxonalarni ixtisoslashtirish va ularning keyinchalik kooperasiyalashuvi; moddiy-texnika, energiya ta'minoti, ta'mirlash xizmati ko'rsatish va hokazolar katta ahamiyatga egadir. Korxonalar ichida ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishiga doir muhim vazifalar quyidagilardir: rejorashtirish sifatini oshirish; ishlab chiqarishni tashkiliy-texnik jihatdan tayyorlashni tashkil etish; yangi texnika va texnologiyani o'z vaqtida joriy qilish; ishlab turgan uskunalarни zamonaviylashtirish; mashinalar, mexanizmlar, uskunalar, apparatlarni joriy va kapital ta'mirlashni ta'min etish, shuningdek, korxona ichida moddiy-texnika ta'minotini to'g'ri tashkil etish.

Barcha tashkiliy omillar bir-biri bilan mustahkam bog'langan bo'lib, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etishning yagona tizimini hosil qiladi. Ulardan to'liq foydalanmaslik, turli tashkiliy kamchiliklarning mavjud bo'lishi asosan ish vaqtidan foydalanishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ish vaqtining bekor sarf bo'lishi mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar oqibati bo'lib, mehnat unumdorligini pasaytiradi, ish vaqtini bekor sarf bo'lishini qisqartirish esa mehnat unumdorligining ortishini ta'minlaydi.

Tashkiliy omillar tizimida kadrlar tarkibining yaxshilanishi - boshqaruv xodimlari sonining nisbiy qisqarishi va sanoat - ishlab chiqarish xodimlari umumiylar sonida ishchilar salmog'inining, bular orasida esa asosiy ishchilar salmog'inining ortishi muhim o'rinni tutadi. Sanoat - ishlab chiqarish xodimlari umumiylar sonida ishchilar salmog'i qanchalik yuqori bo'lsa, bitta xodimga to'g'ri keladigan mehnat unumdorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri shu narsa bilan bog'liqki, fan-texnika taraqqiyotining avj olishi, ishlab chiqarish (texnika, texnologiya) moddiy asosining ta'minlashuvi va xilma-xil, ko'p

<sup>4</sup> Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Akbarov A.M. «Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi» Ma'ruzalar matni. - T.: TDIU, 2005 – 153 bet.

hollarda esa ancha murakkab tashkiliy tadbirlarning amalga oshirilishi o'z-o'zidan emas, balki faqat ijtimoiy ishlab chiqarish ishtirokchilari bo'lgan insonlarning faol mehnat faoliyati natijasidagina sodir bo'ladi. Bu mehnat faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi – muayyan natijani qo'lga kiritishga bo'lgan qiziqishdir. U, o'z navbatida, ishlab chiqarish ishtirokchilari bo'lgan insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish yoki boshqa faoliyat qatnashchilari muayyan mehnat faoliyati natijasini qo'lga kiritishga intilishi bilan bir qatorda yetarli darajadagi mehnat qobiliyatiga, ishbilarmonlik va shijoatkorlik kabi zarur shaxsiy sifatlarga ega, shuningdek, tadbirkor va hushyor bo'lishlari lozim.

Mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

mehnat natijalaridan moddiy va ma'naviy manfaatdorlik;

xodimlarning malaka darajasi, ularning kasbiy tayyorgarligi sifati va umumiyl madaniy-texnikaviy saviyasi;

mehnatga munosabat va mehnat intizomi darajasi;

mehnat jamoalari o'z-o'zini boshqarishining rivojlanishi.

Mehnat unumdorligini oshirish omillari bilan birgalikda uning zahiralari ham mavjud. Mehnat unumdorligini oshirish zahiralari (rezervlari) – texnika va texnologiyani takomillashtirish, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etishni yaxshilash hisobiga mehnat unumdorligini oshirishning barcha omillaridan yanada to'larq foydalanish imkoniyatidir. Zahiralar mehnat unumdorligini oshirish omillari bilan chambarchas bog'liqdir. Agar biror omilni imkoniyat sifatida olib qaraydigan bo'lsak, u holda bu omil bilan bog'liq bo'lgan zahiradan foydalanish imkoniyatning voqyelikka aylanish jarayoni hisoblanadi.

Mehnat unumdorligini oshirish zahiralarining bir necha tasniflari mavjud bo'lib, ularning hammasi ikkita katta guruhga bo'linadi: jonli mehnatdan (ish kuchidan) foydalanishni yaxshilash zahiralari hamda asosiy va aylanma fondlardan yanada samaraliroq foydalanish zahiralari. Birinchi guruhga mehnatni tashkil etish, mehnat sharoitlari, ishlovchilarining mehnat qilish qobiliyatini oshirish, kadrlar tarkibi va ularni joy-joyiga qo'yish, uzluksiz ishlash uchun tashkiliy shart-sharoitlar yaratib berish, shuningdek, xodimlarning mehnat natijalaridan moddiy va ma'naviy manfaatdorligini oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalar kiritiladi. Ikkinci guruh asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashinalar, mexanizmlar, apparatlar va shu kabilalar) dan yaxshiroq foydalanish zahiralarini, shuningdek, xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar, yoqilg'i, energiya va boshqa aylanma fondlardan yanada tejamli va to'liq foydalanishni o'z ichiga oladi.

Zahiralar foydalanish imkoniyatlari belgilari bo'yicha zahira zahiralariga va nobud bo'lish (bekorga sarflash) zahiralariga bo'linadi.

«Zahiralar» tushunchasiga ishlab chiqarishda ish vaqtining bekor sarf bo'lishi ham kiradi. Bular smena ichida va kun mobaynida bekor turishlar, ishga kechikib kelish va rejada ko'zda tutilmagan ishga kelmay qolishlarning barchasidir; mehnatning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan holda sarflanishi – mehnat qurollari va mehnat ashyolaridan oqilona foydalanmaslik hamda belgilangan texnologiya jarayonlarining buzilishi oqibatida mehnatning rejadagidan ortiqcha sarflanishidir.

Zahiralar foydalanish vaqtiga qarab joriy va istiqbol zahiralariga bo'linadi.

Joriy zahiralar texnologiya jarayonlari muhim darajada o'zgartirilmay va qo'shimcha kapital mablag'lar sarflanmay amalga oshiriladi.

Istiqlol zahiralari ishlab chiqarishni qayta tashkil etishni, ancha mukammal asbob-uskunalar o'rnatishni, tayyorgarlik ishlariga kapital mablag'lar va ko'proq vaqt sarflashni talab qiladi.

Zahiralar aniqlanish va foydalanish joyiga qarab xalq xo'jaligi, tarmoq va ichki ishlab chiqarish zahiralariga bo'linadi.

Xalq xo'jaligi zahiralariga tabiiy resurslar, ulardan har tomonlama foydalanish va shu kabilar kiradi.

Tarmoq zahiralariga shunday zahiralar kiradiki, ulardan foydalanish umuman, tarmoqdagi xodimlar mehnat unumdarligini oshiradi (korxonalarning ixtisoslashtirilishi, ishlab chiqarishning bir joyga to'planishi va kombinasiyalanishi, texnika va texnologiyaning takomillashtirilishi va hokazo).

Ichki ishlab chiqarish zahiralari mehnat unumdarligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular joriy va istiqlol zahiralaridan tashqari, ikki guruhga bo'linadi: mahsulotning sermehnatlik darajasini pasaytirish zahiralari va jami ish vaqtidan yaxshiroq foydalanish zahiralari.

Ma'lumki, mehnat unumdarligi darjasasi ish vaqtি birligiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi. Lekin boshlang'ich hajmlar vaqtida ifodalansa, mehnat unumdarligi ish vaqtি fondining mahsulot sermehnatlik darajasiga nisbati sifatida hisoblab chiqariladi

$$Mu = \frac{\Phi_{IB}}{Mc} \quad (4)$$

Buning ma'nosi shuki, mahsulot ishlab chiqarish me'yori uni ishlab chiqarishga sarflangan vaqt miqdoriga to'g'ri proporsional va uning sermehnatlik darajasiga teskari proporsionaldir. Agar mehnat unumdarligi ish vaqt fondini ko'paytirish hisobiga ortsa, u holda bu unumdarlikni oshirishning ekstensiv yo'li hisoblanadi; agar unumdarlik sermehnatlik darajasini qisqartirish bilan ta'min etilsa, bu ekstensiv yo'l sanaladi. Bunda mahsulot tayyorlashga sarf etiladigan sarf-xarajatlarning kamayishi yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish hisobiga sodir bo'ladi.

Mavjud zahiralarni aniqlash ishlab chiqarishning ayrim uchastkalarida yoki joriy va oldingi davrlardagi ish turlari bo'yicha mehnat unumdarligi darjasasi va dinamikasini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Tahlil qilishning asosiy usuli joriy davrdagi ko'rsatkichlarni rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan taqqoslashdir. Bunda rejalashtirilgan topshiriqlarning asoslanganligi ham tekshirilishi lozim, chunki ularda rejalashtirilgan davrdagi ishlab chiqarishning barcha xususiyatlari, shart-sharoitlari, zahiralari to'la hisobga olinmagan bo'lishi mumkin. Shuningdek, yil davomida rejaga kiritiladigan turli aniqliklarni ham hisobga olish zarur. Ular boshqa ko'rsatkichlarga – mehnat unumdarligiga, xodimlar soniga, mehnatga haq to'lash fondiga turli o'zgartirishlar kiritilishiga sabab bo'ladi.

Ishchi kuchi tejalishini hisoblash uchun sermehnatlik darajasini pasaytiruvchi tadbir joriy etilishidan oldingi va keyingi u yoki bu mahsulotni tayyorlash yoki biron - bir ish turini bajarishga sarflangan mehnat xarajatlari taqqoslab ko'rildi.

Sermehnatlik darajasini norma-soatlarda o'lchaganda ish kuchining tejalishi (Tk) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi5:

5 Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Akbarov A.M. «Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi» Ma'ruzalar matni. - T.: TDIU, 2005 – 159 bet.

$$Tk = \frac{T_h}{\Phi_{и.в.} \times K} \times M \quad (5)$$

Bu yerda:  $T_h$  - operasiyaga sarflangan mehnatni tejash, norma-soat hisobida;

$\Phi_{и.в.}$  - ishchining yillik ish vaqtini foizi, soat;

$K$  - mazkur operasiyada normalarni bajarishning rejadagi koefisiyenti;

$M$  - yil oxirigacha amalga oshirilgan operasiyalar (buyumlar) soni.

### Xulosa

Xotin-qizlar jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ularning mehnat samaradorligidagi o'rni muhimdir. Ular iqtisodiyotning rivojlanishiga, ijtimoiy taraqqiyotga va innovatsiyalarga hissa qo'shmoqdalar. Xotin-qizlarga teng imkoniyatlar yaratish orqali, ularning mehnat samaradorligini yanada oshirish va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Mehnat unumdorligini oshirish zahiralaridan biri – kadrlar tarkibini takomillashtirishdir. Kadrlar tarkibi deganda, sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining ayrim toifalari o'rtasidagi miqdor nisbati tushuniladi. Asosiy va yordamchi ishchilarining miqdor nisbati, shuningdek, ishchilarining barcha xodimlar sonidagi nisbati eng muhim. Kadrlar tarkibining ko'rsatkichlari: sanoat-ishlab chiqarish xodimlari umumiyligi sonida ishchilarining salmog'i hamda ishchilar va butun xodimlar umumiyligi sonidagi asosiy ishchilarining salmog'idir. Asosiy ishchilarga tovar mahsulot ishlab chiqarishda bevosita band bo'lgan ishchilar, yordamchi ishchilarga ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan ishchilar (navbatchi slesarlar, detallarni yetkazib beruvchilar, yonilg'i (yoqilg'i) tashuvchilar va hokazolar), ya'ni asosiy sexlarda xizmat ko'rsatuvchi ishchilar va yordamchi sexlardagi barcha ishchilar kiradi.

Ish vaqtidan yaxshiroq foydalanish hisobiga mehnat unumdorligining o'sish zahiralar, avvalo, bu vaqtning bekor sarf bo'lismiga barham berish bilan bog'liqdir. Haqiqatda ular sermehnatlik darajasining pasayishi zahiralaridan keskin farq qiladi hamda faqat mehnat va ishlab chiqarish yaxshi tashkil etilmaganda, mehnat intizomi buzilganda, mehnatni muhofaza qilish yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganda va shu kabi hollarda sodir bo'ladi. Bu zahiralar ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar barham topgach tugaydi. Holbuki, sermehnatlik darajasini kamaytirish zahiralar cheksiz hisoblanadi. Ish vaqtining bekor sarf bo'lishi hisobiga mehnat unumdorligining o'sish zahiralarini aniqlash maqsadida ish vaqtining haqiqiy balansini sinchiklab tahlil qilish uni rejalashtirilgan ish vaqtini bilan taqqoslash, ish kunini suratga tushirish va bu ishni mustaqil ravishda amalga oshirish yordamida ish vaqtining bekor sarf etilishini aniqlash, ularning sabablarini belgilash va ularni kamaytirish yoki to'liq barham toptirish tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

### Адабиётлар руҳати:

1. Shodmonov Sh., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: IQTISOD-MOLIYA nashriyoti, 2010. 477-b.
2. Abdukarimov I.T., Abdukarimova L.G., Smagina V.V. Analiz finansovo xozyaystv-yennoy deyatelnosti predpriyatiya. Uchebnoye posobiye. 2-ye – Tambov: Izdatelskiy dom TGU, 2008.- 667 s.
3. Abdukarimov B.A. va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. 2-nashri. – T.: Fan va texnologiya, 2013.
4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sosiologiyasi. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 217-b.

5. Akbarova Z. Mehnat statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2014.;
6. Ekonometrika: Uchebnik. /Pod red. I.I.Yeliseyevoy. – M.: Finansy i statistika, 2003. – 51-53 s.:
7. Ekonomiceskaya teoriya: Ucheb. dlya stud. vysssh. ucheb. zavedeniy / Pod red. V.D.Kamayeva. – 10-ye izd., pererab. i dop. - M.: Gumanit. izd. sentr VLADOS, 2004, 217-bet.
8. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi: Ikkinch kitob: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: «Sharq», 2003, 79-b.
9. Xolmo'minov Sh.R. va boshqalar. Mehnat ko'rsatkichlari tahlili. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2004. – 57 b.
10. Z.B. Irmatova Korxonalarda mehnat unumdarligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlashni takomillashtirish yo'llari "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2015 yil